

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING  
BILIM, KO'NIKMALARI, MALAKALARINI OSHIRISH**

**Atamurodova Qunduzoy Abdug'aniyevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

qatamurodova@gmail.com

**Jo'rayeva Komila Namoz qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

III bosqich 3BT-21 guruh talabasi


jurayevakomila904@gmail.com

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ona tili savodxonligi darslarida qo'llanilayotgan ilg'or tajribaviy metod va usullardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar keltirilgan. Ona tili savodxonligi darslarida qo'llanilayotgan metod va usullardan mashqlar tahlili qilingan. Ona tili savodxonligi darslarida qo'llanilayotgan samarali metod va usullarning ahamiyatiga oid ba'zi mulohazalar kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ona tili savodxonligi, boshlang'ich sinf, bilim, ko'nikma, malaka, metod, usul, dars samaradorligi, ahamiyati.

Ma'lumki, maktablarda o'quvchilarga o'qitiladigan har bir fan yosh avlodning bilimli, dono jamiyatga foydali shaxs bo'lib yetishishida asosiy vazifani bajaradi. Shuningdek, boshlang'ich sinf yosh avlodning kelajagi uchun muhim poydevor vazifasini o'taydi. Poydevorning qay darajada mustahkam bo'lishi esa boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlariga bog'liq. Shular ichida boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan Ona tili savodxonligi fanining o'rni beqiyos. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur e'tibor darslarda elektron doskalardan va chet el tajribalarining kirib kelishida kuzatiladi. Ona tili savodxonligi fani barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Ona tili savodxonligi fani o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligi oshirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan darslar o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Negaki ularning zamirida savodxonlik va axloqiy-talimiy tarbiya asoslari yotadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari kerak. Hozirgi kunda 1—4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Ona tili savodxonligi darsligida ham bolalarni qiziqtiradigan mashqlar berilgan. Bu mashqlar turli xil o'yinlar tushuntirilgan. O'yinlar qo'llanishiga ko'ra ijodiy va didaktik o'yinlarga bo'linadi.


Ijodiy o'yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o'quvchilar hayotini, borliqni, tevarak- atrofni o'rganadilar va unga moslashadilar. Didaktik o'yinlar esa ta'limiy maqsadlarni amalga oshiradi va ularga moslashtirilgan bo'ladi. Ko'pincha, didaktik o'yinlarni mavzuni tushuntirishda foydalanamiz. Quyidagi 401-sinf 2-qismidagi quyidagi mashqlarni ko'rib o'tamiz.



Buyumlar	Vazifasi
ketmon	devor suvaladi
randa	yer chopiladi
belkurak	daraxtlarning shoxlari kallaklanadi
andava	daraxtlarning tagi yumshatiladi
arra	taxta randalanadi

Bu mashqda ish qurollari vazifasiga ko'ra moslashtirish mashqi berilgan.

Ketmon bilan daraxtlarning tagi yumshatilishi, randaning taxtani aralashi kabi mashqlar berilgan. Boshlang'ich sinflarda kundalik turmushida ishlatiladigan ish qurollarining vazifalari bilan tanishtriladi. Bu mashq kim tez topadi? o'yinidan foydalanamiz. Bu o'yin bilan o'quvchilarni kreativlik, donolik va zukkolikka o'rgatadi.



- 1 Ot deb nimaga aytiladi?  
Ot yasovchi qo'shimchalarni ayting.
- 2 Sifat deb nimaga aytiladi?  
Sifat yasovchi qo'shimchalarni ayting.
- 3 Fe'l deb nimaga aytiladi?  
Fe'llar necha xil bo'ladi?

4-sinf 1-qismidagi 69-mashq tezkor savol-javob o'yini orqali so'z turkumlari haqidagi bilimlarni kengaytirishga qaratilgan. Bu mashqlar Boshlang'ich ta'limda ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional - hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. muammo nuqtai nazardan yondashganda, o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobiliyatini o'stiradi.

Ma'lumki, bolalar o'yinning sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy- psixologik tavsifga ega o'yinlarga o'quv jarayonida foydalanish, shak-shubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.F.Astanaqulova Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalarini shakllantirish metodikasi. „ Talqin va tadqiqot" Ilmiy va uslubiy jurnali.Toshkent,2023

2.Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev SH. „Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent, Noshir, 2009.

3.4-sinf ona tili darslik Toshkent ,novda nashriyoti 2023.1-qism 44-bet.

4.4-sinf Ona tili darslik Toshkent.novda nashriyoti.2023 2-qism 18-mavzu 46-bet

5.. Internet saytlari:daryo.uz 2023